

N.Sh. Mansurova

*"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i Ph.D., dotsent*

O'ZBEKISTONNING TURIZM SALOHİYATI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning turizm salohiyati har tomonlama tahlil etilgan. Unda mamlakatdagi turizm sohasining rivojlanish darajasi, chet ellik sayyohlarning tashrif statistikasi va ularning tashrif sabablari hamda hukumatning turizmga qaratilgan siyosati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turistik infratuzilmaning o'sishi va rivojlanishi bo'yicha muhim ko'rsatkichlar ham batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik infratuzilma, tashrif buyurgan sayyohlar soni, turistik kompaniyalar, gid va tarjimonlar, ekskursiya rahbarlari.

Аннотация

В данной статье всесторонне проанализирован туристический потенциал Узбекистана. Рассмотрены уровень развития туристической отрасли в стране, статистика посещений иностранными туристами и их цели визита, а также политика правительства, направленная на развитие туризма. Кроме того, подробно освещены ключевые показатели роста и развития туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: туризм, туристическая инфраструктура, количество посетивших туристов, туристические компании, гиды и переводчики, экскурсоводы.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan's tourism potential. It examines the level of tourism development in the country, the statistics of foreign tourist visits and their purposes, as well as the government's policies aimed at developing the tourism sector. Additionally, key indicators of the growth and development of tourism infrastructure are thoroughly discussed.

Keywords: tourism, tourism infrastructure, number of visiting tourists, tourism companies, guides and interpreters, excursion leaders.

Kirish.

Bugungi kunda turizm insonlarning farovonligini oshirish, tabiiy muhitni asrab-avaylash va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi muhim sohalardan biriga aylangan. Ushbu soha trillionlab dollarlik umumiy daromad yaratib, har yili dunyo bo'ylab bir milliarddan ortiq odamni sayohatga jalb qilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri turizm yalpi ichki mahsuloti pandemiyadan oldingi darajaga qaytib, taxminan 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu global yalpi ichki mahsulotning 3 foizini tashkil etadi¹.

Shu bilan birga, turistlar oqimining oshishi hududning tarixiy-madaniy merosi, tabiiy-iqlim sharoitlari, rekreatsion va ekologik jozibadorligi, siyosiy barqarorligi, mutaxassislarining malakasi, shuningdek, turistik infratuzilma va xizmatlar sifatining yuqori darajada bo'lishi bilan bog'liq. Shu

¹ World Tourism Organization (UNWTO). Tourism Data Dashboard. UNWTO, accessed September 19, 2024. <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>.

nuqtai nazardan, bugungi kunda hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish va turizm sohasini zamonaviy tarzda ilgari surish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, viza rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, sohaga bo'lgan investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan bir qator muhim choralar ko'rilmogda.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 3 530,8 ming nafarni tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan ularning soni 13,3 % ga oshgan. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida havo transportida kelgan sayyohlar 655,8 ming kishini (18,6 %), temir yo'l orqali kelganlar – 48,3 ming kishini (1,4 %), avtomobil transportida kelganlar – 5,0 ming kishini (0,1 %) tashkil etgan. Sayyohlarning eng ko'p qismi, ya'ni 2 822,0 ming nafari (79,9 %) chegarani piyoda kesib o'tgan¹.

Mavzuning dolzarbligi.

Yangi O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda turizm nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi tarmoq sifatida, balki mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlovchi va madaniy merosni saqlab qolish orqali mahalliy jamiyatlar uchun foydali bo'lgan soha sifatida qaralmoqda.

Xususan, yangi turistik yo'nalishlar va destinatsiyalarni rivojlantirishda hududlarning boy tarixiy-madaniy va tabiiy salohiyatidan samarali foydalanish maqsad qilib qo'yilgan. Bu salohiyatdan foydalangan holda, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirish mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish rejalarida ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu ma'noda, turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mahalliy aholini turizm jarayoniga keng jalb qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida yangi choralar ko'rilmogda.

Mamlakatning geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab obidalar, shuningdek, betakror tabiiy manzaralari ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, turizmning barqarorligini ta'minlash uchun ekologik va madaniy muhitni muhofaza qilish, ommaviy turizmning salbiy ta'sirlarini kamaytirish hamda turistik yo'nalishlarni diversifikatsiyalash masalalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Turizm sohasining tezkor rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli [1], 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari [2], 2023-yil 26-aprelda "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli [3], 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli [4], 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-21-sonli Qarorlari [5] va va ushbu sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar turizm sohasining jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha olimlar tomonidan turli ta'riflar berilgan. Masalan, kanadalik iqtisodchi olim **Richard Butler** turizmni hayot davriga ega bo'lgan sohalardan biri deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, *"turizm rivojlanishning turli bosqichlaridan o'tadi: boshlang'ich davrdan tortib urush yoki inqirozdan so'nggi qayta tiklanish davrigacha"*. Butler, turizmning har bir bosqichi uchun muvofiq strategiyalar ishlab chiqish muhimligini aytadi, chunki sohaning barqaror rivojlanishi shu omilga bog'liq [6]. **Jonatan Deyvidson** – *"turizm sohasini*

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2024-yilning yanvar-iyun oylariga doir choraklik natijalar [Elektron resurs] //– Rejim kirish: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-iyun,erkin>. – Murojaat qilinadi: 27.08.2024.

rivojlantirishda barqarorlik tamoyillarini kengroq qo'llash zarurligini ta'kidlaydi". Uning fikriga ko'ra, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi sharoitida barqaror turizm sohasiga e'tibor qaratish muhimdir. Hududlarda energiya samaradorligi va tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilishni taklif etadi [7]. **Liang Vang** – *"raqamli texnologiyalarning turizm sohasidagi ahamiyatiga e'tibor qaratib, ularning rivojlanishini tezlashtirishini ta'kidlaydi"*. U raqamli turizm xizmatlari orqali xizmatlarning avtomatlashtirilishi, turistlarning shaxsiy tajribasini yaxshilash va sohaning raqobatbardoshligini oshirishni ilg'or qadamlar sifatida keltiradi [8]. **Sofiya Lopes-Gonsales** so'nggi tadqiqotlarida *"mahalliy madaniyat va an'analarni saqlab qolish uchun jamoatchilikning ishtirokini rag'batlantirishni turizm rivojlanishi uchun kalit omil deb"* hisoblaydi [9]. U ayniqsa madaniy merosni asrash va turizmni o'zaro uyg'unlashtirish bo'yicha yangi strategiyalarni taklif qilmoqda.

Mahalliy olimlarimizdan I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish, turizm industriyasini barqaror shakllanishini ta'minlash, turizm-rekreatsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, unda turizmدا rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonning turizm salohiyati tahlil qilindi. Turizm bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanib, nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekistonning tarixiy me'moriy obidalari, tabiiy boyliklari va zamonaviy hayotining tezkor rivoji xalqaro hamjamiyatning katta e'tiborini tortmoqda. Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu shaharlarning tarixiy yodgorliklari mamlakatning boy tarixiy an'analarini aks ettiradi. Shuningdek, O'zbekiston barqaror turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda, bu esa ekologik toza va ijtimoiy mas'uliyatli turizm strategiyalarini qo'llash orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakat ekoturizm va madaniy merosga asoslangan turizmni faol ravishda rivojlantirmoqda. O'zbekiston turizm sohasida infrastrukturani modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorliklarni kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda.


O'zbekiston Respublikasining turizm sektori holatini o'rganish va barqaror turizmning samaradorligini oshirish uchun samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida, turizm sektoriga oid sohaviy ko'rsatkichlarini bir necha yillar kesimida tahlil qilamiz.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 3 530,8 ming nafarni tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan ularning soni 13,3 % ga oshgan. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida havo transportida kelgan sayyohlar 655,8 ming kishini (18,6 %), temir yo'l orqali kelganlar – 48,3 ming kishini (1,4 %), avtomobil transportida kelganlar – 5,0 ming kishini (0,1 %) tashkil etgan. Sayyohlarning eng ko'p qismi, ya'ni 2 822,0 ming nafari (79,9 %) chegarani piyoda kesib o'tgan¹.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar sonining jami 2010-2023-yillar davomidagi o'zgarish tendentsiyasi 1-rasmda keltirilgan.


Tahlillardan shuni ko'rish mumkinki, 2010-2019-yillar davomida O'zbekistonga kelgan turistlar soni izchil o'sib borgan. 2010-yilda 975 ming sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 8,278 millionga yetgan. Bu esa O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi mavqei ortib borayotganidan darak beradi. 2020-2021-yillarda COVID-19 pandemiyasi tufayli sayyohlar soni sezilarli darajada kamayib, 2020-yilda 1,504 millionga tushgan. 2022-yildan boshlab turizm sohasida tiklanish jarayonlari boshlandi, 2022-yilda sayyohlar soni 5,233 millionga, 2023-yilda esa 6,263 millionga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar pandemiyadan keyingi davrda sayohat qilish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2024-yilning yanvar-iyun oylariga doir choraklik natijalar [Elektron resurs] //– Rejim kirish: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-iyun>, erkin. – Murojaat qilindi: 27.08.2024.



1-rasm. 2010-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar sonining o'zgarish tendentsiyasi¹

2024-yilning yanvar-iyun oylarida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2023-yilning shu davriga nisbatan 11,1 % ga ko'paydi, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 44,4 % ga oshdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 3 229,9 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 91,5 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 300,9 ming kishi (8,5 %) tashrif buyurgan².



2-rasm. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni³

Xorijiy fuqarolarning respublikamizga eng ko'p oqimi quyidagi davlatlardan qayd etildi: Qirg'iz Respublikasidan – 1 057,4 ming kishi, Tojikistondan – 1 046,1 ming kishi, Qozog'istondan


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2010-2021-yillarda "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2024-yilning yanvar-iyun oylariga doir choraklik natijalar [Elektron resurs] //– Rejim kirish: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-iyun>, erkin. – Murojaat qilinadi: 27.08.2024.

³ O'sha manba

– 668,4 ming kishi, Rossiyadan – 364,5 ming kishi, Turkmanistondan – 67,2 ming kishi, Turkiyadan – 51,9 ming kishi, Xitoydan – 28,7 ming kishi, Hindistondan – 28,2 ming kishi, Janubiy Koreyadan – 19,6 ming kishi, Italiyadan – 17,7 ming kishi, Germaniyadan – 15,6 ming kishi, AQShdan – 13,5 ming kishi, Fransiyan – 10,7 ming kishi, Ispaniyadan – 9,4 ming kishi va Buyuk Britaniyadan – 9,0 ming kishi. Qolgan 122,8 ming kishi O‘zbekistonga boshqa xorijiy davlatlardan kelganlar (3-rasm).


2024-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolaridan safar maqsadini o‘qish uchun deb belgilaganlar soni 8,1 ming kishiga (jami kelganlarning 0,2 % i), tijorat maqsadida kelganlar – 65,0 ming kishi (1,8 %), davolanish uchun – 56,9 ming kishi (1,6 %), xizmat safari uchun – 81,2 ming kishi (2,3 %), bo‘sh vaqt va dam olish uchun – 528,6 ming kishi (15,0 %)ga to‘g‘ri kelgan. Eng ko‘p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo‘qlash deb belgilaganlari 2 791,1 ming kishi (79,1 %)ga teng bo‘lgan.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari (2024 yil yanvar-iyun, ming kishi)¹

2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning tegishli davriga nisbatan tijorat maqsadidagi sayohatlar 2,8 barobarga, xizmat safarlari 31,0 % ga va bo‘sh vaqtini o‘tkazish va dam olish uchun safarlar 56,0 % ga oshgan. O‘qish maqsadidagi safarlar 61,8 % ga, davolanish maqsadidagi safarlar 76,4 % ga va qarindoshlarni yo‘qlash uchun amalga oshirilgan safarlar 5,2 % ga ko‘paygan².

2019-yil (yanvar-iyun) va 2024-yil (yanvar-iyun) davrlari ko‘rsatkichlarini taqqoslab, 4-rasmda turistlarning turli maqsadlar uchun sayohat qilish dinamikasi keltirilgan.



4-rasm. 2019 va 2024-yillardagi turli maqsadlar uchun sayohat qilishning o‘zgarish dinamikasi³

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi // Turistik o‘tkazilgan chorak natijalari: 2024-yil yanvar-iyun (443b). OURL: https://stat.uz/img/chorak_natijalar/yanvar-iyun/uz/18_turistik-oim_p77253.pdf?preview=1. Ushbu manba asosida muallif ishlanmasi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi // Chorak natijalari: 2024-yil yanvar-iyun (442b). OURL: https://stat.uz/img/chorak_natijalar/yanvar-iyun/uz/18_turistik-oim_p77253.pdf?preview=1

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi // Chorak natijalari: 2024-yil yanvar-iyun va 2019-yil yanvar-iyun. Ushbu manba asosida muallif ishlanmasi.

2019-yil va 2024-yil ko'rsatkichlarini solishtirganda, ayrim yo'nalishlarda o'sish, boshqalarida esa sezilarli kamayish kuzatilgan. Masalan, *qarindoshlarni yo'qlash maqsadida* sayohat qiluvchilar soni 2024-yilda sezilarli darajada oshgan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 68,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 77,1% ga yetgan. Bu oila va yaqinlar bilan bog'lanishning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va oila qadriyatlariga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi. Bo'sh vaqt va dam olish uchun sayohatlar ham o'sish tendensiyasini ko'rsatadi, bu esa odamlarning dam olishga bo'lgan ehtiyojining ortib borayotganini bildiradi. *Bo'sh vaqt va dam olish* maqsadida sayohat qiluvchilar soni ham oshgan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 10,9% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 15% ga yetgan. Bu o'sish odamlarning dam olish va hayot sifatiga bo'lgan e'tiborining ortib borayotganini, shuningdek, daromadlarining ko'payganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu o'zgarish turizm va dam olish sohasidagi xizmatlarning yaxshilanishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. *Xizmat safari uchun sayohat qiluvchilar* soni sezilarli darajada kamaygan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 2,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 0,7% ga tushgan. Bu kamayish zamonaviy texnologiyalarning ta'siri ostida xizmat safarlarining muqobil usullarga, masalan, masofaviy ish va videokonferensiyalarga o'tish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu o'zgarish tashkilotlarning xarajatlarni optimallashtirishga intilishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. *Davolanish maqsadida sayohat qiluvchilar* soni oshgan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 0,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 1,6% ga yetgan. Bu o'zgarish O'zbekistonda tibbiyot sohasining yuksalayotganidan darak beradi. *Tijorat maqsadida sayohat qiluvchilar* soni oshgan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 0,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 1,8% ga yetgan. Bu o'sish pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikning tiklanishi, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi va biznes sohasidagi yuzma-yuz uchrashuvlarning muhimligini saqlab qolganini ko'rsatadi. *O'qish uchun sayohat qiluvchilar* soni kamaygan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 0,4% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 0,2% ga tushgan. Bu pasayish ta'lim sohasida masofaviy ta'limning kengayishi bilan bog'liq. Ko'plab o'quv muassasalari onlayn ta'limni yo'lga qo'yanligi sababli, o'quvchilar uchun sayohat qilish zarurati sezilarli darajada kamaygan. Bu o'zgarish ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi va onlayn o'qish imkoniyatlarining ortib borayotganini ko'rsatadi. *Boshqa maqsadlar uchun sayohat qiluvchilar* soni kamaygan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 17,9% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 2% ga tushgan. Bu pasayish statistikada aniq sayohat yo'nalishlarining ko'rsatilishi bilan bog'liq.

Ushbu tahlillar, 2019-yil va 2024-yil o'rtasidagi sayohat motivlarining sezilarli darajada o'zgarib, bu o'zgarishlar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanishning ta'siri ostida shakllanganini ko'rsatadi.

1-jadval

2016-2022-yillar davomida turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi¹

Ko'rsatkich nomi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2017/ 2016 (%)	2018/ 2017 (%)	2019/ 2018 (%)	2020/ 2019 (%)	2021/ 2020 (%)	2022/ 2021 (%)
Turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni	433	449	502	517	337	288	348	3,7	11,8	2,99	-34,82	-14,54	20,83
Turistik firma va tashkilotlar xodimlar soni	1945	2061	2486	2920	2330	1956	2793	5,96	20,62	17,46	-20,21	-16,05	42,79
Gid va tarjimonlar soni	134	128	143	238	141	129	180	-4,48	11,72	66,43	-40,76	-8,51	39,53
Ekskursavodlar	64	98	140	181	96	66	91	53,13	42,86	29,29	-46,96	-31,25	37,88
Mehmonxona va shunga o'xshash	701	767	863	1013	1111	834	1093	9,42	12,52	17,38	9,67	-24,93	31,06

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2016-2022-yillarda "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Ushbu ma'lumot yillik byulletenlarning 3 sahifasida keltirilgan.

joylashtirish vositalari soni													
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari xodimlar soni	6458	7383	8614	9738	8066	8191	11790	14,32	16,67	13,05	-17,17	1,55	43,94
Xonalar	19167	19977	20635	23528	25584	21814	29218	4,23	3,29	14,02	8,74	-14,74	33,94
Joylar	37795	39833	40788	46671	50408	43504	59327	5,39	2,40	14,42	8,01	-13,70	36,37
Joylashtirilgan shaxslar	15130	17141	21259	21933	70283	12169	22502	13,29	24,02	3,17	-67,96	73,15	84,91
	80	60	26	94	8	76	76						

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlili, 2016-2022-yillar davomida O'zbekiston turizm sektorining rivojlanishi va pandemiya davridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Umuman olganda, quyidagi umumiy xulosalar chiqarilishi mumkin:

2016-2019-yillar davomida turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni izchil o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. 2017-yilda 3,7% va 2018-yilda 11,8% ga oshgan bo'lsa, 2019-yilda bu o'sish 2,99% ni tashkil qilgan. Ammo, 2020-yil pandemiya tufayli jiddiy pasayish kuzatilgan — firma va tashkilotlar soni 34,82% ga kamaygan. 2021-yilda bu pasayish davom etgan bo'lsa-da, 2022-yilda 20,83% ga oshish bilan sektorda tiklanish boshlangani kuzatilgan.

Turistik firma va tashkilotlar xodimlar soni 2017-2019-yillarda sezilarli o'sishni ko'rsatgan: 2017-yilda 5,96%, 2018-yilda 20,62% va 2019-yilda 17,46% ga oshgan. 2020-yilda pandemiya ta'siri bilan 20,21% kamayish kuzatilgan va 2021-yilda pasayish 16,05% ni tashkil qilgan. Biroq, 2022-yilda xodimlar soni 2021-yilga nisbatan 42,79% ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Gid va tarjimonlar soni 2017-yilda, 2016-yilga nisbatan, biroz kamaygan, ya'ni 4,48% ga pasaygan, ammo keyingi yillarda 11,72% va 66,43% darajasida o'sish kuzatilgan. Pandemiya davrida bu ko'rsatkichlar keskin pasaygan, ya'ni 40,76% ga, lekin 2022-yilda 39,53% lik o'sish bilan tiklanish belgilari paydo bo'lgan.

Ekskursavodlar soni 2017-2019-yillarda sezilarli o'sishni ko'rsatgan: 2017-yilda 53,13%, 2018-yilda 42,86% va 2019-yilda 29,29%. 2020-yilda pandemiya ta'siri bilan ekskursavodlar soni 46,96% ga kamaygan va 2021-yilda ham pasayish davom etgan (-31,25%). 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 37,88% ga oshgan.

Mehmonxona va joylashtirish vositalari soni 2016-2019-yillar davomida barqaror o'sishni ko'rsatgan. 2017-yilda 9,42%, 2018-yilda 12,52% va 2019-yilda 17,38% o'sish kuzatilgan. 2020-yilda o'sish davom etgan (9,67%), lekin 2021-yilda pandemiya ta'siri bilan 24,93% ga kamayish kuzatilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 31,06% ga oshgan.

Xodimlar soni 2016-2019 yillarda izchil o'sishni ko'rsatgan: 2017-yilda 14,32%, 2018-yilda 16,67% va 2019-yilda 13,05%. Ammo, 2020-yilda pandemiya tufayli 17,17% ga kamaygan va 2021-yilda biroz tiklanish kuzatilgan (1,55%). 2022-yilda xodimlar soni 43,94% ga oshgan, bu esa turizm sektorining qayta tiklanayotganini ko'rsatadi.


Xonalar soni ham 2016-2019-yillarda izchil o'sishni ko'rsatgan: 2017-yilda 4,23%, 2018-yilda 3,29%, va 2019-yilda 14,02%. 2020-yilda o'sish davom etgan (8,74%), lekin 2021 yilda xonalar soni 14,74% ga kamaygan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 33,94% ga oshgan, bu esa sohadagi tiklanishning belgisi sifatida qabul qilinadi.

Joylar soni 2017-2019-yillarda o'sishni davom ettirgan: 2017-yilda 5,39%, 2018-yilda 2,40% va 2019-yilda 14,42% o'sish kuzatilgan. 2020-yilda pandemiya davrida ham joylar soni biroz oshgan (8,01%), lekin 2021-yilda 13,70% ga kamaygan. 2022-yilda esa joylar soni 36,37% ga oshgan, bu esa sohadagi qayta tiklanish jarayonini ko'rsatadi.

Joylashtirilgan shaxslar soni ham 2016-2019-yillarda sezilarli o'sishni ko'rsatgan: 2017-yilda 13,29%, 2018-yilda 24,02% va 2019-yilda 3,17% o'sish kuzatilgan. 2020-yilda pandemiya tufayli bu ko'rsatkich 67,96% ga kamaygan. Ammo, 2021-2022-yillarda bu ko'rsatkichning sezilarli darajada tiklanishi kuzatilgan: 2021-yilda 73,15% va 2022-yilda 84,91% ga oshgan.

Umumiy tahlillar shuni anglatadiki, O'zbekiston turizm sektori 2016-2019-yillarda izchil rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyish etgan. Ammo, 2020-2021-yillarda COVID-19 pandemiyasi sektorning barcha ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Pandemiya davrida turizm sohasi xodimlari va tashkilotlar soni keskin kamaygan. 2022-yilda esa turizm sohasida tiklanish jarayoni boshlangan bo'lib, ko'rsatkichlarning ko'pchiligida sezilarli o'sish kuzatilgan. Bu tiklanish jarayoni sohadagi strategik choralar va vaksina kampaniyalarining samaradorligidan dalolat beradi. O'zbekiston turizm sektori pandemiyadan so'ng o'zining avvalgi holatini tiklash yo'lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

2022-2023-yillar davomida turistik firmalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan sayyohlik yo'llanmalari savdosi natijalari, o'ziga xos tahliliy yondashuv va ko'rsatkichlar asosida aks ettirilgan. Ushbu jadval turistik xizmatlar bozorining muhim tendensiyalari, sayyohlik yo'llanmalariga bo'lgan talab darajasi, shuningdek, bu davrda turizm industriyasidagi o'zgarishlarni batafsil yoritadi.



5-rasm. 2022-2023-yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, ming birlik¹

Yuqoridagi diagramma 2022 va 2023-yillarda turistik firmalar va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining o'sishini ko'rsatadi. Ushbu tahlilda sayyohlik yo'llanmalarining to'rtta asosiy guruh bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan:

Mamlakat bo'ylab O'zbekiston fuqarolari: 2022-yilda sotilgan yo'llanmalar soni 64,5 ming birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 159,4 ming birlikka oshgan. Bu esa sezilarli o'sishni ko'rsatadi va mamlakat ichidagi turizmga bo'lgan talabning kuchayganligidan dalolat beradi. O'sish taxminan 2,5 barobarga teng bo'lgan.

Xorijiy davlatdagi O'zbekiston fuqarolari: Ushbu guruhda ham sezilarli o'sish kuzatilgan: 2022-yilda 9,9 ming birlik sotilgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 52,7 ming birlikka yetgan. Bu ko'rsatkich xorijiy davlatlarga sayohat qilish uchun sotilgan yo'llanmalarga bo'lgan talabning kuchayganligini ko'rsatadi, o'sish 5,3 barobarga yaqin.

Mamlakat bo'ylab MDH fuqarolari: 2022-yilda ushbu guruh uchun 4,1 ming birlik yo'llanma sotilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 5,5 ming birlikka yetgan. Bu o'sish nisbatan kam bo'lsa-da, MDH fuqarolari orasida mamlakat ichidagi turizmga bo'lgan qiziqishning ozmi-ko'pmi oshganligini ko'rsatadi.

Mamlakat bo'ylab boshqa xorijiy davlatlarning fuqarolari: Bu guruhda ham o'sish sezilarli darajada bo'lgan: 2022-yilda 14,6 ming birlik sotilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 41,6 ming birlikka yetgan. Bu xorijiy davlatlar fuqarolari orasida O'zbekistonga bo'lgan qiziqishning kuchayganligini ko'rsatadi.

Umumiy tahlillar shuni anglatadiki, 2023-yilda barcha guruhlarda turistik yo'llanmalarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshgan. Bu o'sish turizm industriyasidagi strategik rivojlanish, xizmatlarning yaxshilanishi va marketing kampaniyalarining samarali o'tkazilishi bilan bog'liq.

¹ **Turizm bo'yicha press-reliz.** // Chet el sayyohlari soni va turistik yo'nalishlar bo'yicha tahlil. – 2023. – URL: <https://...> (murojaat qilingan sana: 21.08.2024). Ushbu manbadan foydalanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, o'sishning turli guruhlar bo'yicha farqli bo'lishi bu guruhlarining turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojoni aks ettiradi.

Turizm salohiyatini Jahon bozorlarida keng ko'lamda targ'ib qilish maqsadida 2024-yilda xalqaro turizm ko'rgazmalarini tashkil qilingan [11]. Mamlakatimizda nafaqat MDH mamlakatlari fuqarolarining ulushini oshirish, balki rivojlangan davlatlardan ham turistlar oqimini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, 2024-yil 19-sentyabr kuni Parij shahrida bo'lib o'tgan "IFTM-Top Resa" xalqaro ko'rgazmasi doirasida Turizm qo'mitasi raisi U.Shadiev boshchiligidagi delegatsiya ishtirokida O'zbekiston va Fransiya turizm kompaniyalari o'rtasida B2B muzokaralar o'tkazildi. Muzokaralarda yangi va kreativ turpaketlar yaratish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi va turizm oqimini oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasida bugungi kundagi turizm oqimi ijobiy dinamikaga ega bo'lsada (2023-yil 18,600kishi), o'sish suratlarini yanada ko'tarish va sohada yaratilgan imkoniyatlardan kengroq foydalanish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi ta'kidlandi. Yevropadan O'zbekistonga sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida turistik kompaniyalar, inflyuenserlar, investor va ishbilarmonlar bilan yaqindan hamkorlikka taklif etildi¹.

2024-yil 1-yanvardan turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga olib kelingan har bir turist uchun teng ulushlarda 20 dollardan 100 dollargacha rag'batlantiruvchi subsidiya ajratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli [12] turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan qarorida bu haqda so'z boradi. Qarorga ko'ra, turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratiladi.

Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda qoplab beriladi.

Mehmonxonalar sonini va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so'm, 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so'm miqdorlarda qoplab berish tizimi joriy qilingan.

Yuqorida PQ-238-sonli Prezident qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-sentabrdagi 550-son qarori tasdiqlandi².

Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra, investorlarga yangi mehmonxonalarni qurish va jihozlash uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Ushbu subsidiyalar, franchayzing to'g'risidagi shartnoma asosida tashkilotlarni qisman moliyalashtirish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Investorlar, shuningdek, dunyoning taniqli mehmonxona brendlari bilan hamkorlik qilib, royalti xarajatlarini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga,

¹ <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3492>

² https://api-portal.gov.uz/uploads/04be34e1-306c-b600-fe2d-3033d11b81ee_media_.pdf

toifasi (yulduz) bo'lmagan joylashtirish vositalari uch va undan yuqori toifa (yulduz) olganida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlar Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Qurilish va foydalanishga topshirilgan mehmonxonalar uchun, agar xonalar soni 50 va undan yuqori bo'lsa, ularning qurilish va jihozlash xarajatlarining bir qismini davlat budjetidan moliyalashtirish tartibi ham belgilab qo'yilgan.

Ushbu choralar investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, mamlakatdagi turizmni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, o'z navbatida, turizm infratuzilmasini mustahkamlash va ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlar uchun aniq moliyaviy shartlar taklif etilishi, O'zbekistonning global turistik jahondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan mehmonxona xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, mehmonlarning mehmonxonadagi xizmatlardan foydalanishini osonlashtiradi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi¹.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda turizm sektori pandemiya davridagi pasayishdan so'ng tezkor tiklanish jarayonini boshdan kechirmoqda. 2024-yilning ilk yarim yilligida xorijiy turistlar oqimi o'tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Turistlar oqimining ko'payishi infratuzilma va xizmatlar sifatining yaxshilanishi, mamlakatning tarixiy, madaniy va tabiiy resurslariga bo'lgan qiziqish bilan bog'liq. Bu o'sishning turli maqsadlar uchun turli xil yo'nalishlarda qo'llanilishi turizmning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Turistlar oqimidagi oshishni asosiy omillar sifatida mamlakatning boy tarixiy merosi, tabiiy manzaralari va turizm infratuzilmasining yaxshilanishi bilan izohlash mumkin. Xiva, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarning tarixiy obidalariga bo'lgan qiziqish hamda UNESCO ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlarining xalqaro jamoatchilikda e'tibor qozonishi turistlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan joriy etilgan subsidiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash turizm sohasida katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm yo'nalishidagi islohotlarni jadallashtirish, mehmonxonalar qurilishi va jihozlash uchun ajratilgan moliyaviy yordam investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonning global turistik raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Alohida ta'kidlash joyizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni [13]. turizm sohasini rivojlantirishga katta turtki berdi. Ushbu farmon orqali turizm uchun soddalashtirilgan vizalar olish tartibi, xorijiy mutaxassislar uchun imtiyozlar, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish kabi qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, xalqaro aeroportlar va davlat chegaralarida kirish-chiqish jarayonlarining yengillashtirilishi turizmni rivojlantirishning muhim qadamlaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda turizm sohasining barqarorligi va ekologik masalalarga qaratilayotgan e'tibor turizmni rivojlantirishning muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston ekoturizm va madaniy meros salohiyatidan samarali foydalanishga asoslangan barqaror turizmni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirmoqda. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va transport tizimlarini yaxshilash kabi yo'nalishlar turizmning asosiy rivojlanish omillari sifatida ko'rilmoqda. Bu chora-tadbirlar mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlar oqimini oshirish va turizm sohasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://uzbektourism.uz/news/viewid=3490>

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni.
2. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli Qarori.
4. 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli Qarori.
5. 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-21-sonli Qarori.
6. Butler, R. The concept of a tourist area life cycle // Canadian Geographer, 1980. 24 (1), 5-12 p. <https://onlinelibrary.wiley.com/>
7. Davidson, J. Sustainable Tourism and Climate Change // A Global Perspective. Journal of Tourism and Environmental Studies. 2023. – 365 p.
8. Wang, L. Digital Transformation in the Tourism Industry: Opportunities and Challenges // Journal of Hospitality and Tourism Technology. 2021. 523 p.
9. Lopez-Gonzalez, S. Cultural Preservation in Tourism: Community Involvement and Heritage Management // International Journal of Tourism Research. 2022. – 285 p.
10. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Fan va texnologiya, 2014 y. 151-b.
11. Mansurova N.Sh., O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish istiqbollari // Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali №6, 2023. – 107-117 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni.

Foydalanilgan elektron manzillar.

1. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism Data Dashboard. UNWTO, accessed September 19, 2024. <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2024-yilning yanvar-iyun oylariga doir choraklik natijalar [Elektron resurs] //– Rejim kirish: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-iyun,erkin>. – Murojaat qilinadi: 27.08.2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi // Chorak natijalari: 2024-yil yanvar-iyun (442b). OURL: https://stat.uz/img/chorak_natijalar/yanvar-iyun/uz/18_turistik-oimp77253.pdfpreview=1
4. Turizm bo'yicha press-reviz. // Chet el sayyohlari soni va turistik yo'nalishlar bo'yicha tahlil. – 2023. – URL: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 21.08.2024). Ushbu manbadan foydalanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
5. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3492>
6. https://api-portal.gov.uz/uploads/04be34e1-306c-b600-fe2d-3033d11b81ee_media_.pdf
7. <https://uzbektourism.uz/news/viewid=3490>